



Ёш олим ва талабаларнинг  
“XXI аср – интеллектуал авлод асри”  
шиори остидаги ҳудудий илмий-  
амалий конференцияси

## **МАТЕРИАЛЛАР ТЎПЛАМИ**

Наманган - 2016

Ўзбекистон Республикаси Олий ва ўрта махсус таълим вазирлиги,  
Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Истеъдод” жамғармаси,  
Ўзбекистон Республикаси Фанлар академияси, Ўзбекистон Республикаси  
Вазирлар Маҳкамаси ҳузуридаги фан ва технологияларни ривожлантиришни  
мувофиқлаштириш кўмитаси, “Камолот” ёшлар ижтимоий ҳаракати  
марказий кенгаши, Наманган муҳандислик-педагогика институтининг Ёш  
олим ва талабаларнинг “XXI аср – интеллектуал авлод асри” шiori  
остидадаги ҳудудий илмий-амалий конференция материаллари тўплами

Тўпламга 2016 йил 30-31 май кунлари институтда ўтказилган Ёш олим  
ва талабаларнинг “XXI аср – интеллектуал авлод асри” шiori остидадаги  
ҳудудий илмий-амалий конференциясида иштирок этган Наманган вилояти  
ёш олим ва талабаларининг илмий маъруза материаллари киритилган.

НамМПИ, 30-31 май, 2016 йил, Наманган шаҳри

#### Тахрир хайъати:

*проф. П.Матқаримов, проф. Ғ.Ғуломов, проф. Ш.Юлдашев,  
проф. Н.Бойбобоев, проф. В.Хожибоев, ф.-м.ф.д. М.Дадамирзаев доц.  
С.Умархонов, доц. Ш.Кенжабоев, доц. Ш.Абдурахмонов, доц. А.Соҳадалиев,  
доц. Ш.Атаханов, доц. М.Абдуллаев, доц. З.Тўраев, доц. И.Шамшидинов, доц.  
Н.Шайдуллаев, доц. И.Сирожиддинов, доц. Н.Баҳриддинов, доц. Ю.Оттоқов,  
к.ўқ. Ф.Нуриддинова, к.ўқ. А.Атаханов*

<i>ЁҚУБЖОНОВА ХУЛКАРВОНУ ЁҚУБОВНА</i> <i>Наманган муҳандислик-педагогика институти</i>	
<b>ЎЗБЕКИСТОНДА ТАБИАТ ТУРИЗМИ РИВОЖНИНГ ЮКСАЛТИРИШНИНГ ОБЪЕКТИВ ЗАРУРЛИГИ</b> .....	46
<i>ЗАЙЛИЕВ АҚМАЛЖОН АХМАДАЛИЕВИЧ, АСҚАРАЛИЕВ АБДУМАЛИК АБДУЛХАМИД ЎГЛИ</i> <i>Наманган муҳандислик-педагогика институти</i>	
<b>ИҚТИСОДИЁТНИ МОДЕРНИЗАЦИЯЛАШ ШАРОИТИДА КРЕДИТГА ЛАЁҚАТЛИКНИ БАҲОЛАШНИНГ ЗАРУРЛИГИ</b> .....	50
<i>АДАШЕВ АЗИМЖОН ЎРИНВОЕВИЧ</i> <i>Наманган муҳандислик-педагогика институти</i>	
<b>ИШЛАБ ЧИҚАРИШ САЛОҲИЯТИНИ ОШИРИШ ИҚТИСОДИЁТНИ БАРҚАРОРЛИгини ТАЪМИНЛАШНИ МУҲИМ ОМИЛИ</b> .....	52
<i>РАҲИМБЕРДИЕВ ОЙБЕК АЛИШЕР ЎГЛИ</i> <i>Наманган муҳандислик-педагогика институти</i>	
<b>НАМАНГАН ВИЛОЯТИДА КИЧИК БИЗНЕС ВА ХУСУСИЙ ТАДБИРКОРЛИКНИ РИВОЖЛАНТИРИШ ХАРАКАТИ ЯНГИ БОСКИЧДА</b> .....	54
<i>АСҚАРАЛИЕВ АБДУМАЛИК АБДУЛХАМИД ЎГЛИ, ХОЛМИРЗАЕВ УЛУГБЕК АБДУЛАЗИЗОВИЧ, УБАЙДУЛЛАЕВ ТОХИРЖОН АБДУЛЛАЖОНОВИЧ</i> <i>Наманган муҳандислик-педагогика институти</i>	
<b>ХўЖАЛИК ЮРИТУВЧИ СУБЪЕКТЛАРДА ИШ ҲАҚИДАН ОЛИНАДИГАН ДАРОМАД СОЛИГИ ВА МАЖБУРИЙ АЖРАТМАЛАР ҲИСОБИ</b> .....	57
<i>RUSTAMOVA TURDIXON NE'MATJONOVNA</i> <i>(Namangan shahar savdo va mahsulyat xizmat ko'rsatish KXK)</i>	
<b>SHARQ MUTAFAKKIRLARI KASB VA HUNARNI O'RGANISH HAQIDA</b> .....	60
<i>AHRORBEK ALISHER O'GLI G'ANIYEV</i> <i>Namangan Davlat Universiteti</i>	
<b>O'SMIRLARDA KOMPYUTERGA TOBELIKNING SHAKLLANISHI</b> .....	66
<i>G'ANIYEV AHRORBEK ALISHER O'GLI</i> <i>Namangan Davlat Universiteti</i>	
<b>TORTINCHOQ BOLALARNING OTA-ONASI BILAN OLIB BORILADIGAN KORREKSIION ISHLAR</b> .....	69
<i>SHODMONOV DAVRONBEK SAFARALIJEVICH, MANNONOV JAHONGIR ADASHBOYEVICH</i> <i>Namangan muhandislik - pedagogika instituti, Namangan shahar</i>	
<b>KADELAR TAYYORLASHNI INDIVIDUALLASHTIRISH OLTY KASBIY TA'LIMNI MODERNIZATSIYALASHTIRISHNI MUHIM YO'NALISHI SIFATIDA</b> .....	72
<i>MAHMUDOVA NOZIMAXON BAHRIDDINXONOVNA, SOBIRJONOVA NODIRA RUSTAMON QIZI</i> <i>Namangan muhandislik - pedagogika instituti</i>	
<b>DUAL TA'LIM TIZIMINI OLTY TA'LIM MUASSASALARI VA KASB-HUNAR KOLLEJLARIGA TADBIQ QILISH (GERMANIYA DUAL TA'LIMI MISOLIDA)</b> .....	74
<i>T'UXTASINOV MUHAMMAD GULOMJON ЎГЛИ (НВХТХҚТУМОН)</i>	
<b>ГЛОБАЛЛАШГАН ДАВР ТАЪЛИМ-ТАРБИЯСИ: ЎҚИТУВЧИ-ПЕДАГОГ МАСЪУЛИЯТИ</b> .....	77
<i>ф.и.т. БАДРИТДИНОВА МАДИНА БАХРОМОВНА</i> <i>Наманган Давлат Университети</i>	
<b>МУСТАҲКАМ ОНЛА БАРПО ЭТИЛИШИДА ТИББИЙ КЎРИКНИНГ АҲАМИЯТИ</b> .....	81
<i>T'UXTASINOV MUHAMMAD GULOMJON ЎГЛИ (НВХТХҚТУМОН),</i> <i>КУРБАНОВ ДИЛИМҲАТ МАРИПЖАНОВИЧ</i> <i>Наманган муҳандислик-технология институти</i>	
<b>ГЛОБАЛ ДУНЁДА ЁШЛАРНИНГ АХБОРОТ ОЛИШ ИМКОНИЯТЛАРИ: МУАММО ВА ЕЧИМЛАР</b> .....	83

---

## TA'LIMNI MODERNIZATSIYALASHTIRISHNI MUHIM YO'NALISHI SIFATIDA

SHODMONOV DAVRONBEK SAFARALIYEVICH,  
MANNONOV JAHONGIR ADASHBOYEVICH

Namangan muhandislik – pedagogika instituti, Namangan shahar

Mamlakatlarning o'zaro aloqalarini o'sib borishi, har xil millatli insonlarning o'zaro munosabatlarini tobora kengayib borishi, umumiy an'analarni shakllanishi hamda halqaro tajribalarni eng ilg'or na'munalardan samarali foydalanish uchun qulay sharoitlarni vujudga keltirmoqda. Vaqtni o'tishi bilan mexnat va ishlab chiqarishning xarakteri, iqtisodiy faoliyat va uning insonning malakasiga, bilim darajasiga, faoliyat ko'rinishlari va turlariga, jamiyat tarkibi va uning ehtiyojiga, informatsiya va texnologiyalarga nisbatan qo'yayotgan talab darajasi tobora oshib bormoqda.

Shu bilan bog'liq ravishda oliy ta'limning rivojlanishi yangi global tendentsiyalarga ega bo'lib bormoqda. Bunday rivojlanish tendentsiyalari oliy ta'limni modernizatsiyalashni muhim yo'nalishlaridan biri bo'lgan kadrlarni tayyorlash jarayonini individuallashtirish yo'nalishini shakllantirmoqda. Yosh avlod hayotini individuallashtirish ijtimoiy va kasbiy jihatdan o'z-o'zini anglashdan boshlab, bu bosqich o'zining dunyoqarashini shakllanish bosqichi bo'lib, psixologiya nuqtai nazaridan 17-21 yosh oralig'ida namoyon bo'lib, individuallashtirish bosqichi deb ataladi.

Yosh avlod maktabni bitirib, hayotning dastlabki ostonasida kim bo'lish, qanday qilib erishish tanlovini amalga oshiradi, tanlaydi. O'z tanlovini tasdiqlash, tanlovida turish, tanlovini amalga oshirish oliy ta'lim muassasida o'qish jarayonida amalga oshadi. Biroq oliy ta'lim muassasidagi tayyorlash jarayoni qanchalik darajada bunga imkoniyat yaratadi, qanchalik darajada individuallashtirgan. Har bir shaxs o'zining o'zlashtirish surhatiga, bilish va o'rganish hamda qabul qilish darajasiga ega. Muammomni har tomonlama o'rganish uchun olib borilgan tadqiqotlar natijasi shuni ko'rsatdiki, individuallashtirish jarayoni ta'lim va tarbiya tizimining individuallashtirgan qismi psixologiya, sotsiologiya va pedagogikada qo'llanilgan bo'lib, bunday jarayonni har xil tomonlari haqida ma'lum bir darajadagi bilimlar banki mavjud. O'qitishni individuallashtirish tushunchasining quyidagi keng tarqalgan klassik tahriflarini keltirish mumkin:

**individuallashtirish** – bu o'quvchilarni individual farqlarini, rivojlanish darajalarini, ta'lim olish qobiliyatlarini hisobga oluvchi o'qitish subyektlarini, shakllarini tanlash imkoniyati mavjud bo'lgan o'quv jarayonini tashkil etishdir (pedagogik entsiklopediya, T.2, 1999 yil, 201-bet);

**individuallashtirish** – bu o'qitish jarayonining hamma shakllari va ushblarida qanday xususiyatlarni va qanchalik darajada hisobga olinishidan qat'iy

---

nazar o'quvchining individual (shaxsiy) qobiliyatlarini hisobga olish, o'ziga mos shakl va uslublar yordamida individual yondashuv tamoyillarini amalga oshirishdir (Unt, 1990 yil);

**individuallashtirish** – o'qitish maqsadlarini hisobga olgan holda o'quvchining potentsial imkoniyatlari darajasidagi ta'lim olish faoliyatini ta'minlovchi alohida o'quvchiga o'quvchilar guruhini haqiqiy bilish imkoniyatlari va faoliyat maqsadlariga to'la qonli mos keluvchi tarbiyaviy va didaktik majmualar tizimidir (Kirsanov, 1980 yil 138-bet).

Yuqorida keltirilgan ta'riflarda ta'kidlangan fikrlarni umumlashtirgan holda xulosa qilish mumkinki, individuallashtirishning an'anaviy bosh g'oyasi – ta'lim oluvchilarning individual xususiyatlaridan kelib chiqib, o'qitish jarayonini ulardan har birining individual qobiliyatlariga moslashtirishdir. Shu sababli oliy ta'lim amaliyotida hozirgacha bo'lgan davrda o'quv jarayonida o'z aksini topgan individuallashtirishning tashqi tomoni ustunlik qilib kelmoqda. Masalan, ta'lim berish jarayonining turli xil shakllari, ushblari va vositalarining mavjud bo'lishi bilan bir qatorda ular talabning haqiqiy kasbiy (professional) faoliyati bilan juda zaif darajada bog'langan.

Aslida insoniyatni o'z-o'zini boshqalardan farqini anglashini boshqalarga nisbatan his qilishini, ta'lim tizimida va soha tizimida mustaqil muvaffaqiyat bilan harakatlanish uchun o'z-o'zini anglashini va tushunishini shakllantiruvchi ichki individuallashtirish shakli ko'proq samaraga ega bo'lib, individuallashtirishning bu shaklini mazmuni quyidagi toifalarni (katagoriya) ta'kidlamogda, qaysiki, o'zini namoyon qilish, o'zini anglash, o'zi o'zini amalga oshirish, o'zi o'zini tarbiyalash. Bu toifalarni shaxsda shakllanishi shaxsni komilligini, dunyoni ishg'ol qilishga intilish, boshqalarni tushunish, o'z shaxsiyatini saqlash xususiyatlarini shakllantiradi. Ichki individuallashtirish quyidagi maqsadlarda amalga oshirilishga, bo'lajak mutaxassis shaxsiyatini, shaxsiy (individual) faoliyat uslubi asoslarini rivojlantirishga, shakllantirishga qaratilishi lozim. Ichki individuallashtirish vositasida individual faoliyat uslubini, ya'ni individual tarzda faoliyat ko'rsatish stilini, qobiliyatini shakllantirish kasbiy faoliyatni qo'shimcha yoki tanlangan maqsadi emas, balki bu ichki individuallashtirishning eng yuqori natijasidir. Bilish, o'rganish aniq shaxslar tomonidan amalga oshiriladi, shu sababli bilish, o'rganish natijalari uning shaxsiy (individual) xususiyatlariga bog'liq. Ixtiyoriy xodisa va voqeilikni qabul qilish insonning shaxsiy xususiyatlariga, ruhiyatiga yoki shaxsiy tajribasiga bog'liq. Holbuki, bu ilmiy bilishga ko'proq taalluqli bo'lib, birinchi darajada individual qobiliyatiga, sub'ektni tushunishga moyilligiga, bilish faoliyatining ushblari va ko'nikmalariga bog'liq.

O'quv jarayonini individuallashtirishning asosiy vazifalaridan biri ta'lim mazmuni o'quvchining bilish qobiliyati va fikrlash darajasini rivojlanishiga mos keladigan sifatli uzatish, yetkazish printsiplari va usullarini aniqlash va ishlab chiqishdan iborat. Oliy kasbiy ta'lim tizimi keng miqyosda individuallashtirish lozim, chunki o'quv jarayoni o'z navbatida talabalar uchun na'muna hisoblanib, bu

jarayon o'z navbatida kasb-hunar kollejlari ta'lim tizimiga hamda boshqa sohalarga ko'chishi mumkin.

Adabiyotlar:

1. Высшее образование в XXI веке. Подходы и практические меры. Всемирная конференция по высшему образованию. – Юнеско. Париж, 5-9 октября 1998 г.
2. Педагогическая энциклопедия. В 2-х т. – М., 1999 г.

## DUAL TA'LIM TIZIMINI OLIY TA'LIM MUASSASALARI VA KASB-HUNAR KOLLEJLARIGA TADBIQ QILISH (GERMANYA DUAL TA'LIMI MISOLIDA)

MAHMUDOVA NOZIMAXON BAHRIDDINXONOVNA  
SOBIRJONOVA NODIRA RUSTAMJON QIZI

Namangan muhandislik – pedagogika instituti, Namangan shahar

Prezidentimiz ta'kidlaganlaridek, “Hozirgi kunda mustaqil fikrlaydigan, zamonaviy ilm-fan va kasb-hunarlarni puxta egallagan, o'z yurti, o'z xalqiga fidoyi, biz boshlagan ishlarni davom ettirishga qodir bo'lgan, har tomonlama sog'lom avlodni yengib bo'ladimi? Albatta yo'q!

Yana bir bor ta'kidlayman, doimo o'rganish, izlanish, yangilikka intilib yashash kerak. Bugungi kunda qaysi davlat yuksak taraqqiyotga erishgan bo'lsa - bu Janubiy Koreya yoki Yaponiya bo'ladimi, Yevropa davlatlari bo'ladimi – bularning barchasidan o'rganish kerak. Bu borada hech qanday mafkuraviy cheklashlar yo'q. Biz uchun yagona mafkura – O'zbekistonning taraqqiyoti, O'zbekistonning ravnaqi, O'zbekistonning dunyoda hech kimdan kam bo'lmasligidir.<sup>88</sup>

Mana shunday mafkura ila Vatanimiz taraqqiyotiga hissa qo'shishga bel bog'lab jahonda sodir bo'layotgan o'zgarishlarning ijobiy tomonlarini hisobga olib uni hayotga tadbiq qilish bizning ochiq siyosatimizdir. Bu borada xorijiy mamlakatlar bilan o'matilayotgan o'zaro ijtimoiy-iqtisodiy sohada, ta'lim sohasida hamkorlikning o'ni alohida ahamiyatga ega. Kadrlar tayyorlashda eng avvalo, so'nggi paytlarda bizning hayotimizga kirib kelayotgan mehnat bozori talablari tushunchasini hisobga olish kerak.

Shu o'rinda bizning mamlakatimizda ta'lim sohasida tub builish yasagan “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi”da ko'rsatilgan uzluksiz ta'limning asosiy maqsadi har bir fuqaro o'qish davomida ma'lum ixtisoslikka ega bo'lishi, ya'ni kasb-hunar sohibi bo'lishi, albatta, mehnat bozoridagi raqobat asosida o'z o'imini topishi, rivojlangan demokratik davlatlar darajasida, yuksak ma'naviy va axloqiy

---

<sup>88</sup> LA.Karimov. Ona yurtimiz baxtu iqbol va uyuk kelajagi yo'lida xizmat qilish - eng oliy saodatdir. Toshkent - 2015. 235-bet